

## **MIRZO ULUG'BEK - A UNIVERSAL SCHOLAR**

**Zohida Zinat qizi Urunboyeva**

**First-year student, Uzbekistan State University of World Languages**

**zohidaurunboeva@gmail.com**

**Abstract:** This article provides information about Mirzo Ulug'bek, a universal scholar, geographer, historian, master of music, and astronomer. It explores his life and his rich scientific and literary legacy.

**Keywords:** Mirzo Ulug'bek, Stars, Astronomy, Madrasah, Observatory, Samarkand, Observatory.

Mirzo Ulug 'bek – Muhammad Tarag 'ay ibn Shohrux ibn Temur Ulug 'bek Ko 'ragon 1394-yil 22-mart kuni hozirgi Ozarbayjon hududidagi Sultoniya shahrida, Amir Temurning to 'rtinchi o 'g 'li Shohrux Mirzo oilasida dunyoga kelgan. Sohibqironning “ besh yillik yurishi”da Iroqdagi Moldin qal'asi qamal qilish chog 'ida tug 'ilgan. Sharafiddin ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida yozishicha , Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug 'bekning tug 'ilgani va bu nevara kelajakda ham olim ham hukmdor bo 'lishini bashorat qilganlari xabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal'asi qamalini to ;xtatib, uning xalqiga yuklangan to 'lovni bekor qiladi. Uning o 'z nabirasiga Muhammad Tarag 'ay va Ulug'bek deb ism qo 'yganini munajjimlar bashorati bilan bog 'lash mumkin. Muhammad Tarag 'ay buvisi Bibixonimning qo 'lida tarbiya ko 'rgan. Bolaligidan kuchli xotiraga ega bo 'lgan, fan va san 'at turlariga, ayniqsa matematika va astronomiyaga katta qiziqish bildirgan. Arab va fors tillarini puxta bilib, turkiy she 'rlar o 'qigan va o 'zi ham she'rlar yozib turgan. Mirzo Ulug 'bek 1411-yil 17 yosh paytida Movarounnah va Turkistonning hokimi etib tayinlanadi.

Mirzo Ulug 'bekning ilmiy va adabiy merosini o 'rganish 17 asrdan boshlangan. Bu borada Jon Grivs, Tomos Xayd, Frensis Beyli, L.Sediyo, V. Bartold, V. Vyatkin, Y. Knobl, T. N. Qoriniyoziy, G'. Jalolov va boshqa olimlarning tadqiqotlarini ko 'rsatish mumkin. Bunda olimning ijodi, faoliyat turli naqtai nazardan

o‘rganiladi. U matematika, falakkiyot, musiqashunoslik va tarix ilmi bo‘yicha yetuk inson edi. Ulug‘bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma‘naviyatining poydevoriga qo‘yilgan tamal toshlaridan biri bo‘lib, yurtimizdan bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berganini ko‘rsatadi“. “Islom Karimov.” “Yuksak ma‘naviyat-Yengilmas kuch”

Ulug‘bek nafaqat astronom balki matematik, ma‘rifatchi, shoir, tarixchi hamdir. 15 asrda u insonlarni ta‘limga chorlagan “Muslimlar ham, musulmalar ham bilimga ega bo‘lishkerak”. U xalqqa ma‘rifat berishni juda istar edi. Shu maqsadda u madrasalar- oliy ta‘lim muassasalarini qurdirdi. Buxoroda, Samarqandda madrasalar barpo etildi. Ulardan biri, eng mashhuri, samarqandning rRegiston maydonidagi ansambl tarkibiga kiradi. Mirzo Ulug‘bek misli ko‘rilmagan aniqlik bilan yulduzli yilning uzunligini 365 kun, 6 soat, 10 daqiqa, 8 soniya ekanligini hisoblay oldi. Shuningdek, u yer o‘lqi og‘ishini aniqladi. Uning hayoti davomida ilmiy ishlari butun dunyoga ma‘lum bo‘lgan. U haqida xitoyda yozishgan va gapirishgan, uning astronomic hisob-kitoblaridan foydalanishgan. Oradan 200 yil o‘tib ingliz olimlari Ulug‘bekning kashfiyotlari bilan shug‘ullanishdi. Uning ilmiy asarlari lotin tiliga tarjima qilindi. Mirzo Ulug‘bek o‘z rasadxonasida kunutunini o‘tkazgan. Mehnatlarining natijasi - “Gurgan Zij” yulduzlar katalogi bo‘lib, unda astronom 1018 yulduzni tasvirlab, ularni 38 ta yulduz turkumiga ajratgan. Hozirgi kunda “Zij” asarining yuzga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arab tilida nusxasi mavjud.

Mirzo ulugbekni e‘zozlab Toshkent, Samarqand, Buxoro va O‘zbekistonning boshqa shaharlaridagi xiyobon va ko‘chalarga uning nomi berilgan. Samarqandda Mirzo Ulug‘bek muzeyi bor. Riga shahridagi Kronvalda bog‘ida O‘zbekiston e‘lchixonasidan uzoq bo‘lmagan joyda Mirzo Ulug‘bek haykali o‘rnatilgan. Samarqand davlat arxitektura-qurilish institute uning nomi bilan ataladi. 1996-yilda O‘zbekistonda “Ulug‘bek yulduzi” filmi suratga olindi. Yozuvchi Maqsud Shayxzoda 1964-yilda “ Mirzo Ulug‘bek” pyesasini yozgan. Yozuvchi Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” romanini yozgan 1994-yil Ulug‘bek yili deb e‘lon qilingan. O‘zbekiston milliy universiteti Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi.

Yozuvchi va shoir Xurshid davron “ Sohibqironning nabirasi” qissasi va “Algul yulduzi yoki Ulug ‘bekning so ‘nggi kuni” pyesasini yozgan.

Mirzo Ulug ‘bekni hayot ijodi, ilmiy tadqiqot ishlarini chuqurroq o ‘rganishga boshqalarni targ ‘ib qilish uchun bir necha usullar qo ‘llanilishi lozim. Jumladan, Mirzo Ulug ‘bek observatoriyasi, muzeyi, Registon maydoniga maktab litsey, kollej va universitet o quvchi talabalarini ekskursiyaga olib boorish, faqat kitobdan o ‘qimay real hayotda tarixiy obidalar ko ‘rgazmalarni ko ‘rish. Shuningdek “Astronomiya kechalari” tashkil qilib, o ‘quvchilarga teleskop yordamida osmon jismlari, yulduzlarni ularni qanday aniqlagani haqida ma’lumotlar berilib eksperimentlar qilinsa manfaatli bo ‘ladi. Bundan tashqari, ta’im muassasalaridagi darslarda sahna ko ‘rinishlari orqali Mirzo Ulug ‘bekning hayotidagi muhim voqealar sahnalashtirilsa, Mirzo Ulug ‘bek izdoshlari ko ‘payishiga yo ‘l ochgan bo ‘lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avg ‘onova M. “Mirzo Ulug ‘bekning jahon ilm faniga qo ‘shgan hissasi”

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7450603>

2. Abdullayeva M. 2023. “Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o ‘rganish masalalari” Toshkent
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-“Ma’naviyat”, 2008